

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA QURILISH UNIVERSITETI

2025-YIL HISOBI MOLIYAVIY HISOBOTI

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining 2025-yil moliyaviy faoliyati davomida mavjud mablag'lardan samarali foydalanish, ta'lim jarayonini sifatli tashkil etish, ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish hamda infratuzilmani yaxshilashga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirildi. Hisobot davrida universitetning asosiy moliyaviy manbalari sifatida budjet mablag'lari, to'lov-kontrakt tushumlari, ilmiy-tadqiqot faoliyati daromadlari hamda boshqa tushumlar xizmat qildi.

Budjet mablag'lari bo'yicha jami tushum 45704423000 so'mni tashkil etib, jami chiqim 2844122957436 so'mni tashkil qildi. Ushbu mablag'lar asosan o'quv jarayonini ta'minlash, xodimlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash va zarur xarajatlarni qoplashga yo'naltirildi. To'lov-kontrakt asosidagi tushumlar esa 96734161000 so'mni tashkil etib, chiqimlar 91149780539 so'm miqdorida amalga oshirildi. Mazkur mablag'lar ta'lim sifatini oshirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash va qo'shimcha xizmatlarni rivojlantirish uchun sarflandi.

Ilmiy-tadqiqot faoliyati doirasida 2731683000 so'm tushum shakllanib, 2497713856 so'm mablag' ilmiy loyihalar, innovatsion ishlanmalar va ilmiy salohiyatni oshirishga yo'naltirildi. Ish haqi, stipendiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlar yo'nalishida 13560447000 so'm tushum qayd etilgan bo'lsa-da, chiqimlar 13467523824 so'mni tashkil etdi. Bu esa universitetda ijtimoiy majburiyatlarga, xususan professor-o'qituvchilar mehnatiga haq to'lash, talabalarni qo'llab-quvvatlash va boshqa to'lovlarga ustuvor ahamiyat berilganini ko'rsatadi.

Infratuzilmani rivojlantirish uchun 2940000000 so'm mablag' ajratilgan bo'lib, chiqimlar 2431695000 so'mni tashkil etdi. Ushbu mablag'lar bino va inshootlarni ta'mirlash, zamonaviy sharoitlar yaratish hamda universitet hududini obodonlashtirishga yo'naltirilgan. Shuningdek, hisobot davrida ekologik va xo'jalik

yo'nalishlariga ham alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, ko'chatlar ekish va hududni ko'kalamzorlashtirish uchun 30 000 000 so'm, elektr energiyasi xarajatlari uchun 1080000000 so'm, suv uchun 855000000, hamda chiqindilarni boshqarish uchun 55 000 000 so'm mablag' ajratildi.

Umuman olganda, 2025-yilda Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida moliyaviy resurslardan oqilona va maqsadli foydalanildi. Mablag'lar ta'lim sifatini oshirish, ilmiy faoliyatni rivojlantirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish va infratuzilmani yaxshilashga xizmat qildi. Kelgusida mavjud resurslardan yanada samarali foydalanish, qo'shimcha moliyaviy manbalarni jalb etish va barqaror rivojlanish tamoyillarini keng joriy etish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Moliya va iqtisod ishlari

bo'yicha prorektor:



R.Egamov